

MAMLAKAT SANOATI TARMOG'IDA INOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHDA XALQARI TAJRIBALARING O'RNI VA UNING ISTIQBOLLARI

Durdiqulov Sherzod Begmurotovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Makroiqtisodiyot yo'nalishi II kurs magistranti

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki

Toshkent viloyati Keles filiali

Kreditlar monitoringi va muammoli

kreditlar bilan ishslash bo'limi bosh mutaxasisi

sh.durdiqulov@xb.uz

Annotatsiya. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida sanoat va ishlab chiqarish siyosatini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik va ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchilik vazifasini kuchaytirish va ushbu sohada olib borilayotgan ishlar tasirchanlik darajasini oshirish asosiy taraqqiyot dasturi va mamlakatimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblandi.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, islohotlar, sanoat korxonalari, modernizatsiya, rivojlanish, taraqqiyot dasturi.

KIRISH

Hozirgi vaqtda innovatsiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik samaradorlikni oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta'minlab bera oladigan davlat siyosatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi uchun ancha murakkab, ayni vaqtda dolzarb va yechilishi muqarrar bo'lgan vazifalardan hisoblanadi. Agar an'anaviy ilmiy-texnik siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi bilimlarni va ilimlarni talab etibgina qolmasdan asosan yangi bilimlarni yaratishga va ulardan amaliyatda qisman foydalanishga qaratiladigan bo'lsa, aksincha innovatsion siyosatda esa, nisbatan mukammalroq yondashuv nazarda tutiladi, bunda bilimlarni yaratish bilan teng ravishda, ulardan amaliy foydalanishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sanoatni rivojlantirish birinchi navbatda, taraqqiyotning xomashyo yo'nalishidan innovatsiya yo'nalishiga o'tishi natijada butun iqtisodiyotda strategik muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ya'ni zamonaviylashtirish, kooperasiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bugungi kunda milliy sanoatning tovarlar va xizmatlar jahon bozoridagi qa'tiy raqobatga qo'shilishida ularning ilmiytexnikaviy salohiyatini aks ettiruvchi innovatsiyalarning axamiyati beqiyos.

Ushbu maqola mahalliy toifadagi va chet ellik olimlar va iqtisodchilarining iqtisodiy kategoriya sifatida ishbilarmonlik faoliyati va uni boshqarish, ushbu boshqaruv uslublari va yo'nalishlariga oid ilmiy ishlarini tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik faoliyatini boshqarish korxonalar faoliyatining turli yo'nalishlarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi

to‘g‘risida”gi Farmonida “... mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi¹.

Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunga muvofiq, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihamar tufayli milliy sanoat salohiyati tobora yuksalib bormoqda.

Sanoatni boshqarish va uning innovatsion faoliyat asosida yuritilishi avvalo birqancha xalqaro meyorlar va tajribalar, jumladan quyidagi vazifalarni hal etishga bevosita bog‘liqdir:

Birinchidan, sanoat majmuasini innovatsion jarayonini faollashtirish davlat tomonidan kuchli qo‘llab quvvatlash natijasida bo‘ldi. To‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish, grantlar ajratish hamda turli dotatsiyalar berish (Yaponiya), davlat buyurtmalari hamda xaridlari (AQSh) hisobiga amalga oshirildi.

Ikkinchidan, jahon tajribasi sanoat majmuasi innovatsion rivojlanishining yadrosi ekanligini hamda butun iqtisodiyotni o‘sishining asosi ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun birinchi o‘rinda mintaqada yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish jarayonini faollashtirish uchun muhit yaratilishi zarurdir.

Uchinchidan, xorij tajribasi shuni ko‘rsatdiki, davlat tomonidan innovatsion kompaniyalarga turli imtiyozlar, jumladan soliq imtiyozlari berildi. Ushbu qadamlar innovatsion loyihamarni amalga oshirish uchun mamlakatga (mintaqaga) yangi investorlarni jalb qilinishiga olib keldi. To‘rtinchidan, jahon tajribasi sanoat kompaniyalari, ilmiy va ta’lim muassasalari o‘rtasida kooperatsiya taraqqiyotini zarurligini ko‘rsatdi (AQSh, Yaponiya, Fransiya va boshqalar). Biznes va ilm o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mavjud ilmiy-texnik ishlanmalarni qisqa muddatlarda tijoratlashuv jarayonini faollashtirdi. Bu esa ishlab chiqarish samarasini oshirdi.

Beshinchidan, innovatsion faollik hududiy ishlab chiqarish tizimini tatbiq etish yo‘li bilan tashkil etildi (ishlab chiqarish klasterlari, texnopark va texnopolislari). Ishlab chiqarish samarasini oshirish hamkorlik zanjirini shakllanishini ko‘zda tutdi: bir mintaqada doirasida qazib oluvchi kompaniyadan boshlab to xaridorga mahsulotni yetkazib beruvchi kompaniya o‘rtasida bog‘liqlik yuzaga keldi.

Oltinchidan, jahon tajribasi ITKIga yo‘naltirilgan xarajatlarning YaIM (YaHM) dagi hissasini 3%ga, investitsiya hajmini 30%ga yetkazish, yoshlarning kamida 60 %ni bakalavr darajasini olishiga erishish, hamda ITKIlarini davlat tomonidan moliyalashtirish innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim ijobjiy samarani ko‘rsatdi

XULOSA VA MULOHAZALAR

Yuqoridaq ko‘pgina davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mintaqaga sanoatini innovatsion rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri klasterlashdir. Ammo klasterlarni tashkil etish, rivojlantirish va rag‘batlantirishning yagona mexanizmi mavjud emas².

Ushbu yondashuvga asoslangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini jumladan sanoat sohasini modernizatsiyalash uchun zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda sanoat komplekslari vakillarini tashabbuslarini qo‘llab quvvatlashni ta’minlovchi klaster siyosatining asosli dasturini ishlab chiqish lozim.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmonining 1-ilovasi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Lex.uz.

² Bergman, E.M. National industry cluster emplates: a framework for applied regional cluster analysis [Text] / E.M. Bergman, E.J. Feser // Regional Studies. – 2000. – № 34 (1). – P. 1-19

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonining 1-ilovasi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Lex.uz.
2. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.
3. Стратегиуа далнейшего повышениуа конкурентоспособности националной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вак1паРгез\$, 2012. С. 8.
4. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.